



THE ANDIJAN COINS FROM THE “YANGI SANGANAK” HOARD DATED TO THE 15th–16th CENTURIES

Dilmurod Normurodov

Senior Research Fellow

at the State Museum of the History of the Timurids, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

E-mail: d.r.normurodov@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Parkent, “Yangi Sanganak”, Andijan, the Timurids, treasure, coin, copper, minting (struck), Hijri calendar, Gregorian (Common Era).

Received: 20.07.25

Accepted: 21.07.25

Published: 22.07.25

Abstract: The article describes 34 copper coins minted in Andijan, belonging to the Timurid and Shaybanid periods, found in the “Yangi Sanganak” neighborhood of Parkent district, Tashkent region, and currently preserved in the State Museum of Timurid History as part of the “Yangi Sanganak” treasure. The coins are classified into 6 types. On the obverse side of the coins, the inscription “zarb Andijon” or “zarb Andigan” is written in Arabic script, while on the reverse side, the year of minting is indicated in words also in Arabic script. It is noted that these coins were minted during the reign of the Timurid prince and governor of the Fergana region, Umar Shaykh Mirza. A portion of these coins was re-minted during the Shaybanid monetary reform and put into circulation for trade and commercial purposes.

XV – XVI ASRLARGA OID “YANGI SANGANAK” XAZINASINING ANDIJON TANGALARI

Dilmurod Normurodov

Katta ilmiy xodim

O‘zR FA Temuriylar tarixi davlat muzeyi

E-mail: d.r.normurodov@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Parkent, “Yangi Sanganak”, Andijon, temuriylar, xazina, tanga, mis, zarb, hijriy, milodiy.

Annotatsiya: Maqolada Toshkent viloyati, Parkent tumani “Yangi Sanganak” mahallasidan topilgan va Temuriylar tarixi

davlat muzeyida saqlanayotgan temuriylar va shayboniylar davriga oid “Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan 34 dona mis tangalar 6 turga ajratib tavsiflangan. Tangalarning old tomoniga arab harflarida “zarb Andijon” yoki “zarb Andigan”, orqa tomoniga esa arab harflarida soʻz bilan ularning zarb qilingan yili tushirilganligi, tangalar temuriy shahzoda, Fargʻona viloyati xokimi Umarshayx Mirzo davrida zarb qilinganligi, bu tangalarning bir qismi shayboniylar davridagi tanga-pul islohoti paytida qayta zarb urilib savdo-sotiq uchun muomalaga chiqarilganligi qayd qilingan.

АНДИЖАНСКИЕ МОНЕТЫ ИЗ КЛАДА «ЯНГИ САНГНАК», ДАТИРУЕМОГО XV–XVI ВЕКАМИ

Дилмурод Нормуродов

Старший научный сотрудник

Государственный музей истории Темуридов Академии наук Республики Узбекистан

Ташкент, Узбекистан

E-mail: d.r.normurodov@gmail.com

Ташкент Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Паркент, «Янги Санганак», Андижан, тимуриды, сокровище, монета, медь, чеканка, хиджри, григорианский календарь.

Аннотация: В статье описаны 34 медные монеты, отчеканенные в Андижане, относящиеся к периоду Тимуридов и Шейбанидов, найденные в махалле «Янги Санганак» района Паркент Ташкентской области и хранящиеся в Государственном музее истории Тимуридов как часть сокровищ «Янги Санганак». Монеты классифицированы на 6 типов. На лицевой стороне монет арабской вязью нанесена надпись «зарб Андижан» или «зарб Андиган», а на оборотной стороне арабскими буквами прописью указан год чеканки. Отмечается, что эти монеты были отчеканены во времена тимуридского князя и хокима Ферганской области Умаршайх Мирзо. Часть этих монет была перепечатана в период денежной реформы Шейбанидов и введена в обращение для торговых операций.

Kirish

Maʼlumki, qadimgi va oʻrta asrlardagi iqtisodiy hayot, savdo-sotiq va tovar-pul masalalarni yoritishda tangalar muhim oʻrin tutadi. Ular orqali yozma manbalarda keltirilmagan maʼnaviy

madaniyat masalalariga ham ma'lum ma'noda yoritishga yordam beradi. Shuningdek, tangalari orqali siyosiy tarixga ham ma'lum darajada aniqlik kirish mumkin. Jumladan, 2021-yilda Toshkent viloyati, Parkent tumani, "Yangi Sanganak" mahallasidan topilgan XV–XVI asrga oid mis tangalar xazinasini temuriylar va shayboniylar davri tanga-pul muomalasi masalalarining ayrim jihatlarini to'ldirishga yordam beradi. Hozirda Temuriylar tarixi davlat muzeyi fondida saqlanayotgan bu – "Yangi Sanganak" xazinasini jami 1810 dona mis tangalardan iborat bo'lib, ulardan 655 donasiga Samarqandda, 364 donasi Buxoroda, 5 donasi Shosh (Toshkent)da XV–XVI asrda zarb qilinganligi aniqlandi (Нормуродов Д.Р. 2024., – Б. 79-92; Нормуродов Д.Р., 2024, – Б. 64-73; Normurodov D. 2025., – Б. 323-327). Keyingi payidagi tangalarni oksidlardan tozalash va ularni sinchiklab o'rganish natijasida ushbu xazinadagi tangalardan 34 donasi Andijonda zarb qilinganligi aniqlandi.

O'rganilish tarixi

"Yangi Sanganak" xazinasidagi Andijonda zarb qilingan tangalarga ushbu maqolada ilk bor ilmiy muomalaga tortilmoqda. Ammo, bu tangalar o'xshash tangalar O'rta Osiyoning turli shahar va qishloqlaridan topilgan bo'lib, ularni o'rganishda Ye.A.Davidovich, I.To'xtayev, L.Yu.Shpenyova, A.M.Kamishev, R.Z.Burnasheva, D.Davutov kabi tangashunoslarning xizmatlari kattadir. Jumladan, Ye.A.Davidovich O'rta Osiyoning XV – XVI asrning birinchi choragidagi tanga-pul muomalasi bag'ishlangan tadqiqotlarida Andijon tangalarining turi va variantlarini birinchilardan bo'lib aniqlashga harakat qilgan (Давидович Е.А., 1977. – С. 7.). I.To'xtayev hijriy 890 (milodiy 1485-1486)-yilda zarb qilingan bir dona tangani o'z tadqiqotiga kiritgan (Тўхтиев И., 2006. 60-расм). L.Yu.Shpenyova o'z tadqiqotlarida qiyosiy taqqoslama tahlil usullaridan foydalanib, XV asrda Temuriylarning mustaqil va yirik ulusi – Farg'ona hududidagi pul muomalasi masalalarini o'rganadi. Mis tangalarni o'rganish orqali u XV asrning so'nggi choragida yangi mahalliy qayta zarb urilgan tangalarni aniqlagan. Shuningdek, u ushbu ulusda XV asrning oxiri – XVI asr boshlaridagi pul muomalasiga oid ayrim o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib bergan (Шпенёва Л.Ю., 1990. – С. 100-115; Шпенёва Л.Ю., 1991. – С. 207-210; Шпенёва Л.Ю., 1987. – С. 66-68; Шпенёва Л.Ю., 2000. – С. 103-104.). L.Yu.Shpenyova shu davrga oid Andijon tangalarining bezalishiga ko'ra bir-biridan biroz farq qiladigan 7 ta turini aniqlagan (Шпенёва Л. Ю., 1991. – С. 209. – Рис. 1:1.). A.M.Kamishev temuriylar va shayboniylar davriga oid Andijon tangalarini o'rganib, ularni tegishli guruhlariga bo'lib ilmiy tahlil qilgan (Камышев А.М., 2011. – С. 12-14; Камышев А.М., 2013. – С. 21.). U Farg'ona va Shosh tangalari turlarga, Natijada L.Yu.Shpenyova Ye.A.Davidovich tomonidan ishlab chiqilgan tangalardan farqli yangi tanga turlarini aniqlagan va ularni ilmiy muomalaga kiritgan. Uning qasimotiga ko'ra tumuriylar davri Andijon tangalari to'rt: 1-tur — hijriy 818 (milodiy 1415–1416) yil; 2-tur — hijriy 819 (milodiy 1416–1417) yil, 3-tur — hijriy 832 (milodiy 1428–1429) yil, 4-tur — hijriy 898–899

(milodiy 1492–1494) yillarda zarb qilingan tangalar turini o‘z ichiga oladi. Ulardan so‘ngi 4-turi bezaklariga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi 7 variantdan iboratligi ko‘rsatib bergan (Камышев А.М., 2013. – С. 8.). R.Z.Burnasheva Janubiy Qozog‘istondan topilgan Andijon tangalarini ilmiy muomalaga kiritdi (Бурнашева Р.З., 2006. – С. 15, 29, 112.). D.Dovutovlar Tojikiston hududidan topilgan tangalar hazinasini o‘rganish paytida xazina orasidagi Andijon tangalariga ham tarif va tavsif bergan (Довутов Д., 1994. – С. 262; Давлатходжа Довуди., 2009. – С. 201, 213-214, 221.). Yuqorida tadqiqotlar orqali temuriylar davrida Farg‘ona ulisining bosh shahri Andijonda tangalarni zarb qilish yaxshi yo‘lga qo‘yilganligiga aniqlik kiritishga imkon bergan. Jumladan, mis tangalarga bozorda ortib borayotgan talabni qondirish maqsadida hijriy 823 (milodiy 1420–1421) va 832 (milodiy 1428-1429) yilda Buxoro, Samarqand, Qarshi, Termiz, Shahruxiya, Balx, Merv va Hisor shaharlaridagi kabi Andijonda ham tangalar zarb qilinganligi ma’lum bo‘lgan (Камышев А.М., 2013. – С. 12, 14.).

Asosiy qism

I. “Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan tangalarning turlar

“Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan tangalarga turli bezak va arab yozuvlari bo‘rtma shaklda tushirilgan bo‘lib, ularning yuzasidagi bezaklariga ko‘ra quyidagicha 6 turga bo‘linadi:

1-tur. Bu turga tegishli tangalar 19 dona bo‘lib, ulardan bir qismi hijriy 898 (milodiy 1492-1493) yilda zarb qilingan. Ulardan birining hoshiyasi atrofidagi bezagi boshqalarinikidan biroz farq qiladi. Ushbu farqli jihatiga ko‘ra 1-turdagi tangalarni shartli ravishda A va B variantlarga ajratish mumkin.

A – varianti. 1-turning A – variantidagi jami 18 dona tangalarning og‘irligi – 3.0-5.3 g., diametri – 21–26 mm.dan iborat. Ulardan 5 donasiga qayta zarb urilgan. Bu xususida qayta tangalarga tushirilgan qayta zarblar masalasida to‘xtalib o‘tilgan (1:1 – 1:18-rasmlar).

Old tomoni: Atrofi aylanasi to‘rttadan birin-ketin joylashgan to‘rt yaproq shaklli gul va yoni bilan turgan atirgulning endi nish urayotgan g‘unchasi tasvirlangan halqa ichiga “zarb Andijon ()” yozuvi tushirilgan (2:1A-rasm).

Orqa tomoni: “fi altarih sana ()” yozuvidan keyin so‘z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan.

B – variant. bu variantdagi tanga bir dona bo‘lib, uning og‘irligi – 4,6 g, diametri – 21–22 mm.ni tashkil qiladi (1:19-rasm).

Old tomoni: A – variantdagiga yaqin o‘xshashlikda. Ammo hoshiyasining atrofidagi chetlari bo‘rtgan to‘rt yaproqli gul va atirgul g‘unchasiga o‘xshash bezagining oralari ochiqqligi bilan farqlanadi (2:1B- rasm).

Orqa tomoni: A – variantidagi kabi, “fi altarih sana ()” yozuvidan keyin so‘z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo yozuvlarning bir qismi tekislanib ketgan, bir qismi tangaga tushmagan.

1-turning A – variantidagi kabi tangalar A.M.Kamishev tomonidan Qirg‘iz Respublikasidan topilgan Changit xazinasida 8 dona, Laylak xazinasida 6 dona, Aksi xazinasida 5 dona o‘rganilib, ularning bir qismi hijriy 898 (milodiy 1492-1493)-yilda zarb qilinganligi aniqlangan (Камышев А.М., 2013. – С. 123. № 28 (46), – С. 139. № 84. – С. 161. № 60.). “Yangi Sanganak” xazinasidagi bu turdagi tangalarning bir qismida hijriy 898 (milodiy 1492-1493) yil tushirilgan. Shundan kelib chiqib, ularning zarb qilinish yili Amir Temurning nevarasi, Abu Said Mirzoning to‘rtinchi o‘g‘li, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur otasi, temuriy shahzoda – Umarshayx Mirzoning Farg‘ona ulusiga hukmronlik qilgan davriga to‘g‘ri kelishini aytish mumkin.

2-tur. Xazinada bu turdagi tanga bir don bo‘lib, uning og‘irligi – 6,0 g., diametri – 21–22 mm.dan iborat (1:20-rasm).

Old tomoni: atrofi aylanasiga bir-birining ustidan tushgan, har bir qatorda 8 tadan, jami 16 ta bo‘lgan ikki qatorli “uch yaproqsimon” bezak bilan o‘ralgan halqa ichiga 1-turdagi kabi arab harflarida “zarb /Andijon ()” deb yozilgan yozuv tushirilgan (2:2- rasm).

Orqa tomoni: “fi altarih sana ()” yozuvidan keyin so‘z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tangaga tushmagan, bir qismi tekislanib ketgan.

“Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan 2-turdagi tangalarga o‘xshash tangalar ham Changit va Laylak xazinalari orasidan aniqlanib, ularning hijriy 984 (milodiy 1576-1577) yoki 904 (milodiy 1498-1499)-yilda zarb qilinganligi qayd qilingan (Камышев А. М., 2013. – С. 123. № 31, – С. 139. № 86).

3-tur. Xazinadagi tardagi tangalar 8 dona. Ulardan 5 donasida Andijon, 1 donasida eka Andikon (Andigon) yozuvi tushirilgan. Qolgan ikki dona tangalarda “j” yoki “k (g)” harfi tushirilgan joyi o‘chib ketgan. 3-turdagi tangalarni shartli ravishda ikki: A variantdagi Andijon yozuvli va B-variantdagi Andikon (Andigon) yozuvli tangalarga ajratish mumkin.

A – variant. 3-turning A-variantdagi tangalar yuqorida qayd qilinganidek 6 dona bo‘lib, ularning og‘irligi – 4,4-5.2 gr, diametri – 21-25 mm.dan iborat (1:21–1:27-rasmlar).

Old tomoni: Atrofi aylanasiga oltita uchburchaksimon bezaklar bilan o‘ralgan halqa ichiga 1–2-turdagi tangalardagi kabi “zarb Andijon ()” yozuvi tushirilgan (2:3A-rasm).

Orqa tomoni: “fi altarih sana ()” yozuvidan keyin so‘z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tangaga tushmagan, bir qismi tekislanib ketgan. Shu boisdan ularga tushirilgan yilni aniqlashning imkoni bo‘lmadi.

B-variant. 3-turning B-variantdagi bir dona tanganing og‘irligi – 4,6 gr, diametri – 21-26 mm.dan iborat (1:28-rasm).

Old tomoni: 3-turning A-variantidagi kabi aylanasiga oltita uchburchaksimon bezaklar bilan o'ralgan hoshiya ichiga "zarb Andikon (yoki "zarb Andigon") ()" yozuvi tushirilgan (2:3B-rasm).

Orqa tomoni: yuqorida qayd qilingan tanglar kabi "fi altarih sana ()" yozuvidan keyin so'z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tangaga tushmagan, bir qismi tekislanib ketgan. Shu boisdan bu tangaga tushirilgan yilni ham aniqlashning imkoni bo'lmadi.

"Yangi Sanganak" xazinasining 3-turdagi tangalarga o'xshash tangalar L. Yu. Shpenyova tomonidan hijriy 898–899 (milodiy 1492–1494) yillarda zarb qilinganligi aniqlangan (Шпенёва Л. Ю., 1991. – С. 207-210.). Ammo shuni ham qayd qilish kerakki, A.M.Kamishev tomonidan o'rganilgan tangalarda ularning zarb qilingan yilini aniqlashning imkoni bo'lmagan bo'lsada, u L. Yu.Shpenyova tomonidan aniqlangani tangalardagi yillar bilan belgilagan (Камышев А.М., 2013. – С. 8.).

4-tur. 4-turdagi tanga xazinada ikki dona bo'lib (1:29 – 1:30-rasmlar), ulardan birining og'irligi – 4,6 g., diametri – 24–26 mm., ikkinchining og'irligi – 5,1 g., diametri – 22–27 mm.dan iborat.

Old tomoni: cheti bo'ylab nuqtachalar va halqa bilan o'ralgan. O'rta qismiga, atrofi aylanasiga to'rtta o'simliksimon bezaklar bilan o'ralgan hoshiya ichiga 1–3-turdagi tangalardagi kabi "zarb Andijon ()" yozuvi tushirilgan bo'lgan. Ammo yozuv va bezaklarning asosiy qismi tekislanib ketgan(2:4-rasm).

Orqa tomoni: "fi altarih sana ()" yozuvidan keyin so'z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tangaga tushmagan, bir qismi tekislanib ketgan.

Xazinadagi Andijonda zarb qilingan 4-turidagi tangalarning old tomonidagi bezaklari hijriy 898–900 (milodiy) yillarda zarb qilingan Samarqand, Buxoro va Toshkent tangalariga aynan o'xshash (Давидович Е.А., 1983. – С. 79. Рис. 9:4б.). Bundan 4-turdagi tangasi yuqoridagi yillar oraliq'ida zarb qilinganligi ehtimoli kelib chiqadi.

5-tur. Bu turdagi tangalar 3 dona bo'lib, ularning og'irligi – 4,3-5,2 gr, diametri – 21-25 mm.dan iborat (1:31 – 1:33-rasmlar).

Old tomoni: cheti bo'ylab halqa bilan o'ralgan. O'rta qismiga, atrofi aylanasiga birin-ketin joylashgan, o'rtadan ko'tarilgan shoxlari ikki yoniga buralgan o'simlik bargi shaklidagi bezagi va bu bezaklarni bir-biridan ajratuvchi ikki to'liqli "X" shaklidagi hoshiyasi bo'lgan halqa ichiga "zarb Andijon ()" yozuvi tushirilgan (2:5-rasm).

Orqa tomoni: "fi altarih sana ()" yozuvidan keyin so'z bilan tanganing zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo, yozuvlarning bir qismi tangaga tushmagan, bir qismi tekislanib ketgan.

Umumiy tangalardagi yozuvlarni tiklaganda “ (thamanimiaya – sakkiz yuz) و (va) (tisewun – to‘qson) و (va) ...?” yozuvini aniqlashning imkoni bo‘ldi.

6-tur. Bu turdagi tanga bir dona. Uning og‘irligi – 4,5 gr, diametri – 23-26 mm.

Old tomoni: bargi ilonizi shaklidagi novdasining orasida joylashgan bezak bilan o‘ralgan halqa ichiga “zarb Andijon ()” yozuvi tushirilgan (2:6-rasm).

Orqa tomoni: “fi altarih sana ()” yozuvidan keyin so‘z bilan zarb qilingan yili tushirilgan. Ammo u o‘chib ketgan.

II. “Yangi Sanganak” xazinasining Andijonda zarb qilingan tangalardagi qayta zarblar.

“Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan ayrim tangalarga quyidagicha uch turdagi qayta zarblar urilgan:

1-kvadrat () shakldagi hoshiyali qayta zarblar. bu shakldagi hoshiya ichiga arab harflarida “xub ()” deb yozilgan (3:1a – 3:1b-rasmlar);

2-uch parrak () shakldagi hoshiyali qayta zarb. Bu shakldagi hoshiyaning asosiy qismi o‘chib ketgan bo‘lib, uning ichki bir chetida ٩٩٨ (998) raqami saqlangan (3:2-rasm);

3-to‘rtiyaproq () shakldagi hoshiyali qayta zarb. Bu turdagi qayta zarbda xoshiya ichida arab harflaridagi “...mon kon” degan yozuv saqlangan (3:3-rasm).

Qayta zarblar 1-turning A – variantdagi 5 dona tangaga urilgan bo‘lib, bu tangalardan 4 donasiga bir tomoniga bir martadan, 1 donasining esa har ikkala tomoniga ham bir martadan qayta zarb o‘rilgan. Shuningdek, 3-turning A-variantidagi tangalardan biriga va yozuvini aniqlashning imkoni bo‘lmagan tangalardan birining bir martadan qayta zarb urilgan. Qayta zarblardan 1-turdagi kvadrat hoshiya ichiga “xub ()” yozuvi tushirilganlari to‘rtta tangaga, qolgan turlari bittadan tangaga urilgan. Tadqiqotlarda Hijriy 907–914-yillar oralig‘ida kvadrat xoshiya ichida “xub ()” yozuvi bo‘lgan qayta zarblar o‘rilgan (Давидович Е.А., 1979. – С. 370; Давидович Е.А., 1983. – С. 111–113.). Andijon tangalarida ham ushbu turdagi qayta zarblarning borligi ularning shayboniylar davrida qayta muomalaga chiqarilganligini ko‘rsatadi.



Xulosa

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Toshkent viloyati, Parkent tumanidan topilgan “Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan tangalar XV asrning oxirgi yillarida ishlab chiqarilib, muomalaga kiritilgan. Bu tangalarning ishlab chiqarilgan davri, Temuriylar davlatining mashhur shahzodalaridan biri, shox va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning otasi, Umar Shayx Mirzo (1466–1494)ning Farg‘ona viloyatini boshqargan davrining so‘nggi bosqichiga to‘g‘ri keladi. Ayni paytda, Andijondagi tanga zarb etish jarayoni Temuriylarning boshqa hududlaridagi kabi yangi pul birliklarining joriy etilishi bilan birga olib borilgan. Qiziqarli jihati, bu tangalar Muhammad Shayboniyxonning Markaziy Osiyoda hokimiyatni qo‘lga kiritishidan keyin ham darhol bekor qilinmagan, balki muomalada qoldirilgan. Shayboniylar sulolasi tomonidan amalga

oshirilgan pul islohotlari natijasida Andijondagi Umar Shayx Mirzo davrida muomalaga chiqarilgan tangalarga qayta zarb urilib, pul tizimidagi tanqislik bartaraf etilgan. Andijonda ishlab chiqarilgan bu tangalarning tarqalish geografiyasini o'rganish natijalariga ko'ra, ular faqat Farg'ona vodiysigina emas, balki hozirgi O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston va Qirg'iziston hududlaridagi shaharlarda, shuningdek, savdo yo'llari bo'ylab joylashgan qishloqlarda ham keng qo'llanilgan. Bu esa, o'sha davrda Andijonning iqtisodiy ahamiyati va pul birliklarining savdo muomalasidagi o'rnini ko'rsatadi. "Yangi Sanganak" xazinasi kabi ma'lumotlar qo'lga kiritishdagi asosiy manba hisoblanadi, u Andijonning XV–XVI asrlardagi iqtisodiy va siyosiy ahamiyatini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.



1-rasm. “Yangi Sanganak” xazinasidagi Andijonda zarb qilingan tangalar.



Foydalanilgan adabiyotlar royxati:

1. Бурнашева Р.З. Денежное обращение в городах Южного Казахстана в XV–XVIII вв. (Историко-нумизматическое исследование). – Туркистан, 2006. – 255 стр.
2. Давидович Е.А. Денежное хозяйство на территории Южного Таджикистана и Узбекистана во втором десятилетии XVI в. (материалы для характеристики общено и особенного в денежном обращении разных областей Средней Азии) // Нумизматический сборник. Часть пятая. – Часть 5. – Вып. 1. – Москва, 1977. – С. 7-78,
3. Давидович Е.А. История денежного обращения средневековой Средней Азии (медные монеты XV — первой четверти XVI в. в Мавераннахре). – Москва, 1983. – 360 стр.

4. Давидович Е.А. Клады древних и средневековых монет Таджикистана. – Москва, 1979. – 436 стр.
5. Давлатходжа Довуди. Монетные клады Таджикистана. – Душанбе, 2009. – 408 стр.
6. Довутов Д. Монетные находки в Таджикистане в 1980-1985 гг. // АРТ. – Вып. XXV (1985). – Душанбе, 1994. – С 244-262.
7. Камышев А. М. Клады медных монет Тимуридов и Шейбанидов. – Самарканд, 2013. – 176 стр.
8. Камышев А.М. Новые типы и разновидности шейбанидских монет Ахсикета и Андигана // Нумизматика. 2011. № 2. – С. 12-14.
9. Нормуродов Д. Р. XV – XVI асрнинг бошларига оид “Янги Санганак” хазинасидаги Самарканд тангалари хусусида // Тарихий тадқиқотлар. – Тошкент, 2024. – № 2 (4). – В. 79-92.
10. Нормуродов Д. Р. XV – XVI асрнинг бошларига оид “Янги Санганак” хазинасидаги Бухоро тангаларига доир // Тарихий тадқиқотлар. – Тошкент, 2024. – № 3 (5). – В. 64-73.
11. Normurodov D. “Yangi Sanganak” hazinasidagi XV asrning oxiriga oid Shosh tangalari // Temuriylar renessansi: tarix, tadqiqotlar va muammolar mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent, 2025. – В. 323-327.
12. Тўхтиев И. Амир Темур ва темурийларнинг молия-пул сиёсати. – Тошкент, 2006. – 112 бет.
13. Шпенёва Л. Ю. Медные монеты Андижана и Ташкента XV – начала XV в. // История материальной культуры Узбекистана. – Вып. 25. – Ташкент, 1991. – С. 207-210.
14. Шпенёва Л. Ю. Медные монеты Андижана и Ташкента XV– начала XV в. // История материальной культуры Узбекистана. – Вып. 25. – Ташкент, 1991. – С. 207-210.
15. Шпенёва Л.Ю. Клад медных монет конца XV – начала XVI веков из Ташкентской области // Нумизматика Узбекистана. – Ташкент, 1990. – С. 100-115.
16. Шпенёва Л.Ю. Клад медных тимуридских монет из села Мадии Ошской области // Ош и Фергана в исторической перспективе. – Бишкек, 2000. – С. 103-104.
17. Шпенёва Л.Ю. Новые клады монет конца XV – начала XVI веков из Ферганы // Вторая нумизматическая конференция (Тезисы докладов и сообщений). – Москва, 1987. – С. 66-68.